



**15-16 APREL  
2022**

**TOSHKENT  
O‘ZBEKISTON**

**“GEOGRAFIK TADQIQOTLAR: INNOVATSION G‘OYALAR  
VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI”**

**XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA**



**CONFERENCES.UZ**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM  
VAZIRLIGI  
MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI  
G.O. MAVLONOV NOMIDAGI SEYSMOLOGIYA INSTITUTI**

**O‘ZBEKISTON GEOGRAFIYA JAMIYATI**

**“TADQIQOT.UZ”  
XALQARO ILMIIY JURNALLAR PORTALI**

**GEOGRAFIK TADQIQOTLAR:  
INNOVATSION G‘OYALAR VA RIVOJLANISH  
ISTIQBOLLARI**

**II  
XALQARO ILMIIY-AMALIIY KONFERENSIYA  
MATERIALLARI**

**TO‘PLAMI**

**Toshkent - 2023**

**Geografik tadqiqotlar: innovatsion g'oyalar va rivojlanish istiqbollari:**  
II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plam (15–16-aprel, 2022-yil, Toshkent). –Toshkent.: TADQIQOT.UZ, 2023. – 847 bet.



<http://doi.org/10.5281/zenodo.4751426>

To'plamda keltirilgan ilmiy tadqiqot ishlari natijalaridan tabiiy geografiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya, xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik, tashqi iqtisodiy faoliyat, turizm, gidrologiya, gidrometeorologiya, geologiya, geodeziya, kartografiya hamda geoinformatika sohalaridagi mutaxassislar, ilmiy xodimlar, mustaqil izlanuvchilar, doktorantlar, magistratura va bakalavriat talabalari, umumiy o'rta ta'lim maktablari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'qituvchilari hamda geografiya faniga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

**Tahrir kengashi:**

g.f.d., professor Hikmatov F.H.  
g.f.d., katta ilmiy xodim Rafiqov V.A.  
g.f.n., dotsent Sharipov Sh.M.

**Kengash a'zolari:**

g.f.n., dotsent Tashtayeva S.K.  
g.f.n., dotsent Shomurodova N.T.  
PhD, dotsent Shomurodova Sh.G'.  
PhD, dotsent Prenov Sh.M.  
PhD, dotsent Raxmonov D.N.  
PhD, dotsent Raxmonov K.R.  
PhD, dotsent Umirzoqov G'.O'.

**Mas'ul muharrir:**

Ibragimov Sh.U.

©Mualliflar jamoasi

©tadqiqot.uz

## O‘ZBEKISTON HUDUDIDA MAVJUD MINERAL BULOQLARDAN FOYDALANISH MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI

**Egamberdiyeva Umriniso Tursunqulovna**

dotsent

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti

**Suyunova Shahlo Iskandar qizi**

magistrant

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti

**Annotatsiya:** Maqolada O‘zbekiston hududlarida joylashgan mineral buloqlar, ulardan bugungi kunda foydalanish darajasi o‘rganilgan. Asosiy e‘tibor bugungi kunda shifobaxsh buloqlardan foydalanishdagi muammolar hamda mineral buloqlarning mamlakat iqtisodiyotidagi ahamiyatiga qaratilgan.

**Kalit so‘zlar:** mineral buloq, mineral suv, rayonlashtirish, sog‘lomlashtirish muassasalari, shifobaxsh buloqlar, kimyoviy tarkib, rekreatsiya.

## PROBLEMS AND PROSPECTS OF USE OF MINERAL SOURCES AVAILABLE ON THE TERRITORY OF UZBEKISTAN

**Egamberdiyeva Umriniso**

**Suyunova Shahlo**

**Abstract:** The article examines the mineral springs located in the regions of Uzbekistan and their current use. The main focus today is on the problems of using medicinal springs, as well as the importance of mineral springs in the country's economy.

**Keywords:** mineral spring, mineral water, zoning, health facilities, healing springs, chemical composition, recreation.

Suv inson organizmidagi hayotni qo‘llab-quvvatlaydi va eng muhimi, suv yordamida siz ko‘plab kasalliklardan xalos bo‘lishingiz mumkin! Tabiiy mineral suvlar turli kasalliklarni davolaydi, kasalliklarni to‘liq yo‘q qilishga yoki surunkali kasalliklarning barqaror remissiyasini saqlab turishga yordam beradi.

Mineral suv – tabiatning o‘ziga xos sovg‘asi. Yer osti manbalaridan olingan ushbu tabiiy resurs shifobaxsh xususiyatlarga ega, foydali biologik faol komponentlarning ko‘payishi va kimyoviy tarkibning xususiyatlari tufayli inson tanasiga shifobaxsh ta’sir ko‘rsatadi.

O‘z tarkibida ma’lum 2 va boshqa elementlar bo‘lib, ana shu elementlarni ko‘p ozligiga qarab ularni shifobaxshligi belgilanadi. [1, 179-b.]

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda inson sog‘lig‘ini yaxshilash va tiklash borasida sog‘lomlashtirish markazlari va sihatgohlar xizmati faoliyatini yanada jadallashtirish maqsadida mineral suv resurslarini ko‘paytirish yuzasidan keng qamrovli tadbirlar amalga oshirildi. O‘tgan yillar davomida respublikamizda 40 ga yaqin turli shifobaxsh suv konlari ochilgan va foydalanishga topshirilgan.

O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasidan kelib chiqqan holda aholi o‘rtasida kasallanish ko‘rsatkichlarini pasayishini va umr uzayishini ta‘minlash borasida mineral suvlar bilan davolaydigan sog‘lomlashtirish maskanlar imkoniyatlaridan foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi.

Aslini olganda respublikamizda tarqalgan buloqlar turli-tuman tabiiy sharoitlarga, rekreatsion resurslarga va iqtisodiy imkoniyatlarga ega bo‘lib, bu ishlab turgan mineral buloqlardagi davolash-sog‘lomlashtirish muassasalarini kengaytirish va yangilarini qurish uchun juda qulaydir. Ularni ayniqsa respublikamizning tog‘li joylarida oqilona joylashtirish, mahalliy-tabiiy sharoitlar va joylarning tabiiy geografik xususiyatlarini chuqur o‘rganishni taqozo qiladi. Amalda ular o‘rganilmasa, jiddiy xatoliklarga yo‘l qo‘yilishi mumkin. Respublikamiz hududidagi ayrim sanatoriyalar, dam olish uylari tabiiy geografik jarayonlarni hisobga olmasdan qurilgan.

Mineral buloqlarni o‘rganishda ularning geografik joylashuvini aniqlash va rayonlashtirish maqsadga muvofiqdir. O‘zbekistondagi mavjud mineral buloqlarning aksariyatida davolovchi shifoxonalar, sihatgoh va dam olish maskanlari bunyod etilganligini ko‘rishimiz mumkin.

Farg‘ona mintaqasida 50 dan ortiq mineral suv buloqlari ro‘yxati shakillantirilgan va o‘rganilgan bo‘lib, u yerlarda ko‘plab shifoxonalar ishlab turibdi. Kimyoviy tarkibi, minerallasishi bo‘yicha bu suvlar chet eldagi mashhur mineral suvlarga o‘xshaydi, kasalliklarni davolash usullari ham deyarli bir xil. Farg‘ona vodiysida Chortoq, Chimyon, Shohimardon va boshqa ko‘plab shifoxonalar hamda dam olish maskanlari bor. [2, 94-b.]

Chirchiq-Ohongaron vodiysining gidrogeologik jihatidan tog‘ oldi qismi katta qiziqish uyg‘otadi, chunki bu yerda har xil ichimlik va mineral suvlarning bir necha havzalari topilgan. Oqtosh, Xumson, G‘azalkent va Chotqol sog‘lomlashtirish zonasi, Tovoqsoy va Bildirsoy shifobaxsh oromgohlari, Chorvoq, Chimyon, Kumushkon oromgohlari shular jumlasidandir.

Zarafshon vodiysi turli-tuman foydali qazilmalarga boy bo‘lib, bu yerda issiq, kam minerallasgan, turli kimyoviy tarkibli suvdan to‘yuqori minerallasgan va radonli mineral suvlar aniqlangan. Hozirgi kunda Sitorai Mohi-Xossa, Abu Ali ibn Sino shifoxonalari, Samarqand dam olish uyi kabi o‘nlab maskanlar ishlab turibdi.

Qashqadaryo viloyatida issiq mineral suvlarning katta zaxiralari aniqlangan. Aholi sonining jadal o'sishiga qaramasdan bu viloyatda boshqa joylarga nisbatan olib qaralganda davolash-sog'lomlashtirish muassasalari kam. Hozirgi vaqtda iqlimiy va balneologik sihatgohlar, oromgohlardan Langar oromgohi, Xo'jaipok shifoxonasi va boshqalar faoliyat ko'rsatmoqda.

Surxondaryo viloyatida gidrogeologlar turli-tuman kimyoviy tarkibga ega bo'lgan mineral buloqlarning 30 dan ortiq manbayini aniqlashgan. Davolash maqsadida o'rtacha va yuqori minerallashtirilgan Uchqizil vodorod-sulfidli issiq suvlaridan foydalanib kelinmoqda. Viloyatda Jayronxona, Xondiza shifoxonalari, Boysun iqlim maskani va boshqalar mavjud. [4, 63-b.]

Quyi Amudaryo vohasida shifobaxsh balchiqli ko'llar va mineral buloqlar ko'p uchraydi. Bulardan ba'zilar shifoxonalarda qo'llanilmoqda, ayrimlari kanal va zovurlar qazilishi oqibatida hamda paxta dalalarida ishlatiladigan zaxarli moddalarning suv va tuproq orqali tushishidan jiddiy zarar ko'rmoqda. Ular ekologik jihatdan izdan chiqmoqda.

Respublikamizning tog' va tog' yonbag'irlarida yashovchi qishloq aholisi asosan buloq suvlarini iste'mol qiladilar. Jizzax, Toshkent, Namangan, Qashqadaryo, Surxondaryo, Samarqand, Sirdaryo, Farg'ona, viloyatlarida ichish maqsadida 850 ta yirik buloqlardan foydalanadilar. [3, 58-b.]

Bulardan ko'rinib turibdiki buloqlarning inson hayotidagi ahamiyati katta. Shu sababli ham ularning mavjud holatini saqlab qolish, buloqlarning qurib qolish xavfining oldini olish, ifloslanishi va tarkibiy davolash xususiyatlarini yomonlashishidan saqlash, buloqlar mavjud bo'lgan joylarni sanitariya muhofaza ostiga olish, zaxiradagi suvlardan foydalanish sxemalarini ishlab chiqish, hali o'rganilmagan yangi buloqlarni o'rganish va buloqlar haqida aholiga ma'lumot beradigan mobil ilovalar ishlab chiqish mavjud muammolarning amaliy yechimi hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Шерматов М.Ш., Умаров У.У., Рахмедов И.И. Гидрогеология. Дарслик. Т.: 2007 . -179 б.
2. Зокиров А.З. Ўзбекистоннинг шифобахш ресурслари ва шифогоҳ масканлари. Абу Али ибн Сино. Т.:1997 -94 б.
3. Ковалев Ю.С., Калабугин Л.А. Сирли булоқлар. Меҳнат. Т.:1987. -58 б.
4. Nizomov A. "Hisor buloqlari". Toshkent. Mehnat-1989 -63 b.